

**HP** BUKHARA  
HAND PRINT

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI  
VA XORIJIY TAJRIBALAR



**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI  
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI:  
5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI  
VA XORIJIY TAJRIBALAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**TO'PLAMI**

**IEA  
TIMSS**

**IEA  
PIRLS**

**2025-YIL  
21-NOYABR**



---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI  
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI  
AVLOD DARSLIK LARI VA XORIJIY TAJRIBALAR”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**MATERIAL LARI**

**2025-yil, 21-noyabr**

### Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

|                  |   |                                                                                                    |
|------------------|---|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| B.B. Ma‘murov    | – | Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;                                                  |
| Z.M. Muqimov     | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;                                   |
| G.R. Akramova    | – | Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo; |
| M.M. Tilavova    | – | Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;                                         |
| R.A.Qo‘ldoshev   | – | Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;                                            |
| M.J. Saidova     | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;                                                        |
| F.M.Qosimov      | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;                                                    |
| Y.Y.Azimov       | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;                                                    |
| N.O.Safarova     | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;                                                    |
| N.B. Adizova     | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| N.B. Adizova     | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| G.E.Saidova      | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| R.X.Jumayev      | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| F.N. Abdullayeva | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| S.R.Akramova     | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |
| M.N. O‘rinova    | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                      |

### Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

|                     |   |                                                                                                            |
|---------------------|---|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Z.M. Muqimov        | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;                                                   |
| G.R. Akramova       | – | Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais muovini; |
| J.S.Aminov          | – | Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;                                                           |
| M.M. Tilavova       | – | Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;                                                 |
| R.A.Qo‘ldoshev      | – | Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;                                                    |
| M.J. Saidova        | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;                                                                |
| F.M.Qosimov         | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;                                                            |
| Y.Y.Azimov          | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;                                                            |
| F.S.Safarov         | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                              |
| S.R.Akramova        | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                              |
| N.B. Adizova        | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                              |
| R.X.Jumayev         | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;                                                              |
| I.D.Axrоров         | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;                                                    |
| B.N.Yuldashev       | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;                                                    |
| D.N.Xayrullayeva    | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;                                                    |
| Z.I.Usmonova        | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;                                                          |
| N.O‘.Xudoyberdiyeva | – | Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.                                                          |

To‘plam Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilning 21-noyabr kunda **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

#### Mas‘ul muharrir:

*M.J. Saidova - pedagogika fanlari doktori, professor*

#### Taqrizchilar:

*B.R. Adizov - pedagogika fanlari doktori, professor*

*G.V. Izbullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

Quddus Muhammadiy ijodida folklorizm — xalq ogʻzaki ijodining zamonaviy bolalar adabiyotida davom etish shakli sifatida namoyon boʻladi. Uning asarlarida xalqona soʻz boyligi, oʻyin va qoʻshiq ritmlari, ertakona obrazlar uygʻunlashgan. Shoir folklorizmni sunʼiy emas, balki tabiiy tarzda — bolalar ruhiyatiga mos, milliy ruhni singdirgan holda qoʻllagan. Shu jihatdan Quddus Muhammadiy ijodi **bolalar adabiyotida folklor anʼanalarining jonlanishida** muhim oʻrin tutadi va oʻzbek bolalar sheʼriyatida folklorizmning yorqin namunasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Safarov, F., Xudoyberdiyeva, N., & Xolmurodova, N. (2022). Oʻqish darslarida oʻquvchilar nutqini oʻstirish imkoniyatlari. *Journal Pedagogics*, 2(2), 275-277.
2. Oʻktamovna, X. N. (2021). Oʻzbek Romanlarida Tarixiy Inversiyani Berish Usullari Va Vositalari. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 430-433.
3. Khudoyberdiyeva, N. O., & Ergashova, M. H. (2023, April). METHODOLOGY OF WORKING ON THE CLASS OF NOUNS IN PRIMARY CLASSES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 1, pp. 84-89).
4. OʻXudoyberdiyeva, N., & Ibragimova, Z. (2023, February). XALQ MAQOLLARI ASOSIDA BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARINI MEHNAT INTIZOMIGA OʻRGATISH YOʻLLARI. In *E Conference Zone* (pp. 10-14).
5. Khudoyberdiyeva, N. O. K. (2022). THE ISSUE OF FOLKLORE CHRONOTOPE IN ABDULLA QADIRI'S WORKS. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(2), 135-138.
6. Xudoyberdiyeva, N. O. K., & Oʻroqova, G. (2022). Folklorda makon va zamonning oʻziga xos talqini. *Science and Education*, 3(2), 468-474.
7. Xudoyberdiyeva, N. (2021). ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA TARIXIY INVERSIYA VA FOLKLOR XRONOTOPI MASALASI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU oʻqituvchisi. In *Научно-практическая конференция*.
8. Khudoyberdiyeva, N. O. (2024). Methods of Explaining the Meaning of Abstract Words to Primary Class Students Through Images. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(4), 322-325.

## **“TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI FANLARARO INTEGRATSIYANI AMALGA OSHIRISH”**

**Joʻrayeva Dilnoz Raxmidinovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil  
izlanuvchisi, boshlangʻich taʼlim kafedrasida oʻqituvchisi

**Nutfullayeva Umida Faxritdin qizi**

Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi 8 BT-23 guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlangʻich sinf texnologiya darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali fanlararo integratsiyani amalga oshirish masalasi yoritilgan. Axborot texnologiyalari yordamida oʻquvchilarning fanlararo bilimlarini uygʻunlashtirish, texnik tafakkurini rivojlantirish hamda taʼlim jarayonini samarali tashkil etish yoʻllari tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiya darslarida AKT vositalarini qoʻllashning afzalliklari, didaktik imkoniyatlari va oʻqituvchining metodik yondashuvlari asoslab beriladi.

**Kalit soʻzlar:** texnologiya darsi, fanlararo integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, boshlangʻich taʼlim, raqamli kompetensiya, innovatsion taʼlim.

**Kirish.** Zamonaviy taʼlim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — oʻquvchilarda amaliy bilim, koʻnikma va kompetensiyalarni shakllantirishdir. Boshlangʻich

sinfda o'qitiladigan texnologiya darsi bu jarayonning ajralmas qismidir. Texnologiya ta'limi o'quvchini nafaqat buyum yasashga, balki fikrlash, tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalariga ham o'rgatadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng qo'llash integratsion yondashuvni yanada kuchaytirmoqda. Texnologiya fani orqali matematika, tasviriy san'at, tabiatshunoslik, ona tili va hatto axloqiy tarbiya fanlari bilan o'zaro bog'liqlikni yo'lga qo'yish o'quvchining tafakkurini kengaytiradi, uning bilimlarini real hayotiy faoliyat bilan uyg'unlashtiradi.

**Asosiy qism. 1. Texnologiya fanining integrativ mohiyati.** Texnologiya fani mohiyatan o'z ichiga boshqa fanlar bilan bevosita bog'liq elementlarni oladi. Masalan, buyum yasash jarayonida o'lchash (matematika), rang uyg'unligi (tasviriy san'at), material haqida tushuncha (tabiatshunoslik) va og'zaki izohlash (ona tili) kabilar qo'llaniladi. Bu o'quvchining bir vaqtning o'zida bir necha fan doirasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llashiga sharoit yaratadi.

Integratsiya darslari o'quvchini kompleks fikrlashga o'rgatadi. Masalan, "Qog'ozdan gul yasash" mavzusida o'quvchi geometrik shakllarni (matematika), rang tanlashni (tasviriy san'at), gul nomini yozishni (ona tili) va kompyuterda gul chizmasini yaratishni (AKT) bir vaqtning o'zida o'rganadi.

**2. AKT vositalarining texnologiya darslaridagi o'rni.** Axborot texnologiyalari yordamida texnologiya darsini interfaol tashkil etish o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. O'qituvchi PowerPoint, Canva, Tinkercad, Paint yoki 3D-modellashtirish dasturlaridan foydalanib, bolalarga buyum yasash bosqichlarini bosqichma-bosqich namoyish etishi mumkin.

Masalan:

- "Oddiy o'yinchoq loyihasi" mavzusida o'quvchilar Tinkercad dasturida o'yinchoq shaklini 3D modellashtiradi.

- "Mening orzumdagı xona" loyihasida bolalar kompyuterda mebel dizaynini loyihalab, rang uyg'unligini tanlaydi.

- "Texnika va tabiat" integratsiyasi orqali o'quvchilar tabiatdagi shakllardan ilhomlanib, buyum dizaynini ishlab chiqadilar.

Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning texnik va ijodiy fikrlashini kuchaytiradi, raqamli savodxonlikni rivojlantiradi hamda o'z g'oyalarini texnologik vositalar orqali ifodalash imkonini beradi.

**3. Fanlararo integratsiyaning didaktik afzalliklari.** Fanlararo integratsiyaning texnologiya fanida bir necha afzalliklari mavjud:

1. **Bilimlarning amaliy qo'llanilishi** – o'quvchilar o'rganayotgan nazariy tushunchalarni amaliy faoliyatda sinab ko'radi.

2. **Ijodkorlikni rivojlantiradi** – turli fan elementlarini birlashtirish orqali yangi g'oya paydo bo'ladi.

3. **Motivatsiyani oshiradi** – dars mazmuni hayotiy misollar bilan bog'langanligi sababli o'quvchining darsga qiziqishi kuchayadi.

4. **Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi** – o'quvchilar guruhda ishlash, g'oyani himoya qilish, fikrini asoslashni o'rganadi.

4. **O'qituvchining roli va metodik yondashuvi.** O'qituvchi integratsiya darsini rejalashtirayotganda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- Har bir fan elementi dars maqsadiga xizmat qilsin.
- AKT vositalari darsning maqsadiga mos tanlansin.
- O'quvchilar mustaqil fikrlashga va ijodkorlikka yo'naltirilsin.
- Yakuniy natija sifatida o'quvchi real mahsulot (rasm, model, taqdimot) yaratishi lozim.

Shuningdek, o'qituvchi uchun resurs bazasini to'ldirish, internetdan vizual materiallar, videodarslar va elektron platformalarni (Google Classroom, LearningApps, Canva) o'quv jarayoniga kiritish muhim.

Texnologiya darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish — bu shunchaki kompyuter bilan ishlash emas, balki raqamli tafakkur, tizimli fikrlash, muammoli vaziyatni yechish va o'z

fikrini vizual ifodalashni o'rgatish jarayonidir. Fanlararo integratsiya bu yo'nalishda o'quvchiga keng dunyoqarash, amaliy bilim va mustaqil faoliyat uchun zamin yaratadi.

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'limda texnologiya fanini AKT bilan boyitish va uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv:

- o'quvchilarning texnik va ijodiy salohiyatini kuchaytiradi;
- o'qituvchiga darsni interfaol tashkil etish imkonini beradi;
- fanlararo tafakkurni shakllantiradi;
- raqamli kompetensiyani erta yoshdan rivojlantiradi.

Shu sababli, texnologiya darslarida AKT vositalaridan oqilona foydalanish — ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Pappa, C. I., Georgiou, D., & Pittich, D. (2023). *Technology education in primary schools: addressing teachers' perceptions, perceived barriers, and needs. International Journal of Technology and Design Education*, 34, 485–503.

2. Kurt, T. (2024). *Assessing the state of technology education in primary schools: a systematic review. International Journal of Technology and Design Education*.

3. Azizxo'jayev, N. N. (2022). *Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

4. Jo'rayev, M. M. (2021). *Fanlararo integratsiya asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari*. O'zbekiston pedagogika jurnali, №5.

5. (2025). *Technology in the Classroom: Benefits and Impact on Education*. GCU Edu Portal.

6. Inkorporatsion yondashuvlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. J.D.Rahmiddinovna.

7. Jo'rayeva Dilnoz Rahmiddinovna, Texnologiya darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning nazariy asoslari., 2024, Журнал, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.

8. J.D.Rahmiddinovna, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari образование и инновационные исследования (2024 год № 2), 117

9. Jo'rayeva Dilnoz Raxmiddinovna, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiya va inkorporatsiya, 2025, Журнал "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"

10. J.D. Rahmiddinovna, Inkorporatsion yondashuvlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish international multidisciplinary conference hosted from glasgow | england ...

#### **BOLALAR ADABIYOTIDA FOLKLOR OBRAZLARI VA MOTIVLARI: BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI**

**Sayfilloyeva Jasmina**

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar adabiyotida xalq og'zaki ijodi (folklor) obrazlari va motivlarining o'rni, ularning badiiy-estetik ahamiyati hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Folklor namunalarini o'quv jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash, axloqiy sifatlarni shakllantirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, bolalar adabiyoti, obraz, motiv, ertak, ta'lim, tarbiya, milliy qadriyat.